



## SHARIF YUSUPOVNING FURQAT BIOGRAFIYASINING TIKLANISHIGA OID TADQIQOTLARI

*Torayeva Muhayyoxon Qurbon qizi*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat*

*O'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti*

*E-mail: [torayevamuhayyo0@gmail.com](mailto:torayevamuhayyo0@gmail.com)*

*Tel; +998916280505*

**Annotation:** In the article, the scholarly research of Sharif Yusupov, who made a significant contribution to the development of Uzbek source studies, on the revival of Furqat's biography, is analyzed. In the scientist's work "On the Paths of Furqat", comments were made about the study of Furqat's life, friends, going abroad and the main reasons why he wandered in other countries and could not return to his country.

**Key words:** source studies, enlightenment, source, archival documents, debate, biography, ignorance, hammaslak, governor-general

**Аннотация:** В статье анализируются научные исследования учёного Шарифа Юсупова, внесшего значительный вклад в развитие узбекского источниковедения, по возрождению биографии Фурката. В работе учёного «Дороги Фурката» даны комментарии об изучении жизни Фурката, его друзьях, выездах за границу и основных причинах, по которым он скитался по другим странам и не мог вернуться в свою страну.

**Ключевые слова:** источникование, просвещение, источник, архивные документы, полемика, биография, невежество, хаммаслак, генерал-губернатор.

**Anotatsiya:** Maqolada o'zbek manbashunosligi rivojiga munosib hissa qo'shgan olim Sharif Yusupovning Furqat biografiyasining tiklanishiga oid ilmiy quvvatlari tadqiqotlari tahlilga tortilgan. Olimning "Furqat yo'llarida" asarida Furqat hayoti, do'stlari, chet elga ketish va o'zga yurtlarda sarson bo'lib, yurtiga qaytolmasligining asosiy sabablari tadqiq etilgani xususida mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** manbashunoslik, ma'rifatparvarlik, manba, arxiv hujjatlar, munozara, biografiya, jaholat, hammaslak, general-gubernator

Mustaqillik davrida milliy adabiyotimiz tarixidagi XIX asr oxiri XX asr boshlari Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari adabiy merosini o'rganish muhim o'rinn egallaganligi hech birimizga sir emas, albatta. Mustamlaka tuzum siyosati natijasida xalqimizning bir qancha fidoiy, ma'rifatparvar ijodkorlarining ustlariga ta'na-



malomat toshlari otilganligi, tariximiz soxtalashtirib talqin etilganligi ham ayni haqiqatdir. Bu xususida O‘zbekiston Respublikasining 1-prezidenti I.A. Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” nomli asarida ham shunday ta’kidlaydi. “Ahvol shu darajaga borib yetdiki, o‘z tariximizni o‘zimiz yozish huquqidan mahrum bo‘ldik. Sovet davrida yaratilgan tarixni men tarix deb sanamayman.”<sup>1</sup> Bu davrda yartilgan asarlarning tag zamiridagi haqiqatlar bir qancha zahmatkash olimlarimizning izlanishlari natijasida bugungi kunda bid’at botqog‘idan qalqib yuzaga chiqdi. Ana shunday zahmatkash olimlardan biri professor Sharif Yusupovdir. Bu kishi haqida adabiyotshunos olim Ahmadjon Meliboyev “Tarix ummonidan qatralar” maqolasida shunday eslaydi: “professor Sharif Yusupov o‘tgan asrning yetmishinchı yillari boshlarida ToshDUNing (hozirgi O‘zMU) jurnalistika fakultetida talabalarga so‘nggi xonlik davridan saboq bergan. Domlaning yaqin o‘tmishimizga doir maroqli suhbatlari qiziqarli bo‘libgina qolmay, o‘sha payt uchun bir muncha kutilmagan xulosalari, ko‘pchilikka ma’lum bo‘lmagan faktlari bilan boshqa saboqlardan ajralib turar edi”<sup>2</sup>.

Ustoz ilmiy faoliyatining kattagina qismini Furqat biografiyasini tiklashga, Qo‘qon adabiy muhitining Xudoyorxon davri tarixini yoritishga bag‘ishlagan edi. Olimning mashaqqatli mehnatlari evaziga Furqatning chet ellardagi hayoti, do‘słlari, maslakdoshlari bilan bog‘liq bir qancha chalkash va noma’lum bo‘lgan ma’lumotlar topilib, adabiyot ahliga tanishtirildi. Olimning Furqat ilmiy biografiyasini tiklashga doir tadqiqotlari natijasida vujudga kelgan “Furqat yo‘llarida”, “Xudoyorxon va Furqat”, “Xufiya qatlamlar”, “Tarix va adab bo‘stoni” kabi ilmiy xazinalar bugungi manbashunoslik fanining taraqqiy topishida muhim ahamiyat kasb etayotgani ham bejizga emas. Olimning tabiatidagi sinchikovlik va mehnatsevarlik natijasida ko‘pgina bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan bir talay haqiqatlar oydinlashdi. U 1990-yili “Furqat va o‘zbek ma`rifatparvarlik adabiyotining yangi bosqichi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Mustaqillik yillarida tadqiqotchi olimning “O‘zbek ma`rifatparvarlik adabiyoti va Furqat” nomli uslubiy qo‘llanmasi nashr etildi. Olim o‘z tadqiqotlarida Furqat ijodining ma’lum bir qirralarini arxiv ma’lumotlari, matbuot materiallariga asoslangan holda yoritib beradi. Sharif Yusupovning ilmiy faoliyatida muhim o‘rin tutadigan asarlaridan “Furqat yo‘llarida” monografiyasi 1989-yili e`lon qilindi. Unda Furqatning chet elga ketish va qolib ketish sabablari, shoirning vatanjudolikda kechgan og`ir hayoti to`g`risida arxiv hujjatlari hamda ishonchli manbalar asosida e`tiborli mulohazalar bayon qilindi.

<sup>1</sup> I.A. Karimov . Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. “Sharq” nashriyot-matbaa konserni. 1998.

<sup>2</sup> Ahmadjon Meliboyev. “Tarix ummonidan qatralar”. “Jahon adabiyoti” jurnalı 2019-yil 2-son



Tadqiqotning yana bir diqqatga sazovor jihat shundaki, olim mazkur masalalar yuzasidan ilgarigi ilmiy ishlarda bildirilgan fikrlar bilan munozaraga kirishadi va o`z qarashlariga ishonarli dalillar keltiradi. Furqatning chet elga chiqarilib yuborilishi va 18 yil sarson sargardonlikdaa o`tkazib, aziz xoki o`zga yurtlarda qolib ketishining haqiqiy sabablarini izlab topish furqatshunos tadqiqotchilar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri edi. Bu masala ko`pchilik furqatshunos olimlarni babs-munozaraga tortganligi ham buning ahamiyatining nechog`lik ekanligini ko`rsatib turadi. Ana shunday dolzarb masalaga Sharif Yusupov manbalarni, arxiv hujjatlarni titkilash mobaynida Furqatning chet ellarda sarson bo`lishiga asosiy sabab Turkistonlik ayrim boy va amaldorlarni hajv qilishi yoki general-gubernator oilasi bilan shaxsiy nizosi tufayligina emas, balki chor hukumati Turkistonda yurgizgan yerlik aholini nodonlik va jaholatda saqlashdan iborat reaksiyon harakatlariga zid keladigan ma`rifatparvarlik faoliyati tufayli va chor idora usuliga qarshi bo`lgan ilg`or fikrli kishilar bilan hammaslak bo`lganligi uchun ham yurtdan chiqarilib yuborilganligini aniqlaydi. Olim izlanishlari davomida Furqatning 1892-yil bahorida Istanbuldan yozilgan maktubini topish orqali shoir ko`pgina tadqiqotchilar da`vo qilganidek, yurtdan yashirin qochib ketmaganligini, aksincha general-gubernatorlik doiralari qo`ygan tuzoqqa ilinib qolib, “ixtiyoriy sayohat”ga jo`natilganligini aniqlaydi.

Sharif Yusupovning “Furqat yo`llarida” adabiy-tanqidiy maqolalar to`plami olimning ko`p yillar mobaynida mamlakatimiz arxivlarini, qator qo`lyozma fondlarini o`rganish natijasida chiqargan xulosa va umumlashmalarining mahsulidan iboratdir.

Kitobning “Bolalikdan balog`atga” bobida Furqatning ilk savodi chiqishida muhim rol o`ynagan ustozlari, bolalik yillari, savdogarlik bilan shug`ullangan davrlari, Marg`ilonda yashagan yillari va Muqimiyl, Zavqiy, Nisbat kabi ma`rifatparvarlar bilan ilk uchrashuvlar, turmushi haqidagi qimmatli ma`lumotlar keltirib o`tilgan. Bundan tashqari Furqatning Marg`ilondagi hayoti ko`p adabiyotshunoslar tomonidan o`rganilganligini ta`kidlaydi. Xususan, adabiyotshunos olim H. Hojiboyev tomonidan Furqatning marg`ilonlik suxandonlar davrasida amalga oshirgan ishlari, bu davrda yaratilgan ba`zi asarlari haqida talaygina qiziqrli hikoyalari 2 ta maqolasida bayon qilinganligini aytib, marg`ilonlik do`stlari shaxsini aniqlash bo`yicha hech bir ish amalga oshirilmaganligini ta`kidlaydi. Olim Furqatning do`stlarining shaxsini aniqlashtirish bo`yicha olib borgan tadqiqotlari natijasida quyidagilarni aniqlaydi. Dastlab, Furqatni Marg`ilonga taklif qilgan Muhammad Sharif haqida fikr yuritadi. Marg`ilonlik savdogar Muhammad Sharif va “Yorkand shahridan Toshbultuga xat” da Mirzo Sharif deb atagan do`sti aslida bir odam ekanligi aniqlaydi. “Muhammad Sharif ham she’riyatga ixlosmand bo`lib, Obid



taxallusi bilan shuhrat topgan. U Furqat, Zavqiy, Rojiy Marg`iloniy va boshqalar bilan do`sit bo`lgan. Sho`ro hokimiyatining dastlabki yillarda Mirzo Sharif qo`rboshilarni o`xshatib hajv qilgani uchun Marg`ilon rastasida kaltaklanadi va o`zi o`nglomagan shoir 1920-yil vafot etadi”<sup>3</sup>.

Furqat “Sarguzashtnomा”da “ko`p borikbin va xirad oyin kishi” (nozik narsalarni ko`ra biluvchi, aql idrokli kishi) sifatida ta’rifangan do`sti Mulla Shamsiddin mufti marg`ilonlik ilm ahllari davrasida mashhur bo`lgan. Furqat Mulla Shamsiddin orqali Rojiy Marg`iloniy bilan tanishadi. Rojiy “aruz fanida ko`b mohir kishi” bo`lib, “turkiy g`azal mashqida ko`b latif va ravon” ligi haqida Furqat qayd etib o`tganligini keltiradi. Shuningdek, Sharif Yusupov Rojiy Marg`ilonda rus-tuzem makatablari ochilishida ham faol bo`lganligi aniqlaydi. Olim “Yorkand shaxridan Toshbultuga xat”da Furqat salom yo`lagan Hoji domla bilan Qarshiy domla haqida ham ba`zi ma`lumotlarni oydinlashtirishga muvaffaq bo`lgan. Hoji domla Mahdumboy madrasasida mudarrislik qilgan. Qarshiy domla ham shu madrasada murarrislik qilgan. Uning ilmi komil, she’riyatda peshqadam bo`lganligi marg`ilonliklar orasida mashhur bo`lgan. Marg`ilonlik qariyalardan Abdullaxon Alixonovning qo`lida Qarshiy domla o`zi kitob qilgan qimmatli bayoz ham bo`lib, undan Furqat asarlari ham joy olgan. Furqat Yorkentdan yozgan she’riy maktubi yo`llangan Toshboltu esa Roiq taxallususi bilan asar yaratgan. Olim uning Muxtorxon ismli yolg`iz o`g`li hali hayot ekanligini aniqlaydi.

Sharif Yusupov bu kabi ma`lumotlarni Marg`ilondagi safari chog`ida yoshi ulug` insonlar bilan bo`lgan suhbatlardan bilib olgan.

Xulosa qilib olim, “Marg`ilonda Furqat ijodkor sifatida yangi bosqichga ko`tarilishiga, ilmini takomillashtirishiga, she’riyat bobida ustoz darajasiga yetgan qalam sohiblari bilan abadiy do`splashuviga yordam berishdan tashqari, o’sha davrdagi mahalliy xalq hayotida yangi va ulkan voqealardan bo`lgan gazeta bilan tanishuviga, gazeta orqali ma’rifatparvarlik faoliyatida ilk odimlarni tanlashiga ham ko`p jihatdan qulay sharoit vujudga kelgan edi”<sup>4</sup> deydi.

Sharif Yusupov o`zidan oldin Furqat haqida tadqiqotlar olib borgan olimlarning asarlari bilan tanishib chiqadi va hali buyuk ma’rifatparvar hayotining ochilmay qolgan qirralari mavjudligini anglaydi. Jonkuyar olim Furqat hayotining Toshkent davri o`zidan oldingi tadqiqotchilar tomonidan yetarlicha o’rganilmay qolgan deb hisoblab, bu boradagi izlanishlarni ham davom ettiradi. Uning “Furqat yo’llari”da asarining ikkinchi qismi “Toshkentdagи faoliyat” deb nomlangan bo`lib, unda

<sup>3</sup> Sharif Yusupov. Furqat yo’llarida. G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1984

<sup>4</sup> Sh. Yusupov “Furqat yo’llarida” G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1984



Furqatning Toshkentdagi hayoti aks ettirilgan. Ko‘pgina furqatshunos olimlar shoirning uzoq vaqt Toshkentda yashashining sababi qilib, ona shahrida oilasi bilan yashashning imkoniy yo‘qligi, muhimi, rus hayoti, rus madaniyati bilan yaqindan tanishish istagi borligini ta’kidlashgan. Bunga qo‘srimcha tarzda esa Sh. Yusupov shoir qon-tomir kasalligiga da’vo topish maqsadida ham Toshkentga yo‘l olganligini ta’kidlaydi. Olim bunga sabab qilib quyidagilarni keltiradi. “Furqat Muqimiy vositasi bilan g‘oyibona tanishgan do‘sti Hoji A’zam Sarimulla Oxund o‘g‘lining Toshkentga taklif etib ketma-ket yo‘llagan maktublarini ham qo‘srimcha qilsak, shoirning Toshkentda uzoq muddat yashash haqida qarorga kelishi qay tariqa pishib yetilganini ko‘z oldimizga keltirish qiyin bo‘lmaydi.”<sup>5</sup>

Furqat Toshkentda do‘sti Hoji A’zam ko`magi bilan Ko`kaldosh madrasasidagi bir hujraga joylashadi. Shoir bu yerda Sattorxon Abdug‘afforov, Jo`rabek Qalandarqori o‘g‘li, Muhiddinxo`ja Hakimxo`ja o‘g‘li, Saidrasul Saidrasul o`gli va boshqalar bilan do`st tutunadi. Keyingi qismda ularning faoliyatları va Furqat bilan qanday aloqasi bo`lganligi izohlab beriladi. Furqat rus ziyolilaridan S. Gramenitskiy, G. Mitropolskiy, V. Stepanov, M. Lyutov, E. Gradusov va boshqalar bilan tanish bo`lgan ulardan so`nggi madaniy yangiliklarni bilib olgan. Ammo Turkiston o`lkasiga demokrtik g`oyalar kirib kelishiga to`sinqlik qiluvchi rus ma’murlari Furqatni ham uning rus do`stlarini ham ta’qib va vatanjudoliklarga duchor etadilar. Arxivda saqlanayotga N. Ostroumovning kundaligini o`rganib chiqqan Sharif Yusupov, uning qanchalar ikkiyuzlamachi bo`lganligiga guvoh bo`ladi. Furqatga boshqa shaharlarga borib yangiliklar bilan tanishib kelishni taklif qilgan N.Ostroumov u ketgach Turkistonning barcha darvozalarini shoir uchun yopib qo`yadi. Uning do`stlarini ham ta’qib ostiga oladi.

Olim Turkistonning o‘sha davrga aloqador vaqtli matbuoti, boy arxiv materiallari, Furqat do‘stlarining barhayot farzandlari bilan uchrashib, shoirning Toshkentda kimlar bilan do‘stona munosabatda bo`lganligini, kimlar uning ma’rifatparvarlik faoliyatiga haqiqiy ko‘mak bergenligini aniqlaydi. Furqatning Toshkentda ish ko‘rgan o‘zbek ma’rifatparvarlarining birinchi avlodi vakillari bo‘lmish Sattorxon Abdug‘afforov, Saydrasul Saydazizov, Mirzo Abdulla Isamuhamedov, Muhiddinxo`ja Hakimxo`jayev, Inomxo`ja Umryoxo`jayev, Jo`rabek Qalandarqori o‘g‘li, Sharifxo`ja Poshshaxo`jayev va boshqalar bilan birga ustoz-shogird tariqasida yaqindan hamkorlik qilganliklari haqidagi furqatshunoslik uchun yangilik bo`lgan faktlarni ketiradi. Bundan tashqari, Olim Furqatning S.

<sup>5</sup> Sh. Yusupov “Furqat yo‘llarida” G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1984



Gramenitskiy, S. Sichev, M. Andreyev, M. Lyutov, G. Mitropolskiy, D. Nazarov, V. Stepanov, A. Neudachin singari mashhur rus ma'rifatparvarlari bilan hamfikr va hammaslak bo'lganligini hatto, shoir chet ellarda yashagan paytlarida ham bu ajoyib rus kishilari uning holidan xabar olib turganligini arxiv materiallarini o'rganish mobaynida aniqlaydi.

Sharif Yusupovning katta yutuqlarida biri Furqat ijodini o'rgnishda faqat asl nusxadagi hujjatlardan foydalanligidadir. Olimning 1978-yilda "Guliston" jurnalida "G'urbatda Furqat" deb nomlangan maqolasi chop etiladi. Bu maqola "Furqat yo'llarida" kitobidan ham o`rin olgan. Unda Hoji A'zam, Mirmaqsud oqsoqol, Abdul Azizzon, Yusuf boyvachcha, Mirzahalil, Qori Siddiq, Valihoji, Yoqubxoji, Mirzahoshim kabi savdogarlarning hayotini, uning Furqat bilan qanday bog`liqligini yoritgan. Olim Furqatning biografiyasiga oid bir qancha asarlarini talqin qiladi, ham adabiyot, ham tarix uchun muhim ma'lumotlarni ilm ahliga taqdim etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'zbek manbashunosligi rivojiga o'z tadqiqotlari bilan munosib hissa qo'shgan olim Sharif Yusupov biror bir manba ustida ishlar ekan, yuzaki qarashni xohlamaydi. Har bir manbani yaratilish tarixiga jiddiy e'tibor qaratdi. Furqat biografiyasiga oid bahs-munozaralarga barham berish, uning do'stlari, hammaslaklari shaxsini aniqlash maqsadida arxiv hujjatlariga, Furqatning yozishma, maktublariga murojat qildi. Olimning sa'y-harakatlari natijasida, nafaqat Furqat hayoti, Toshkentda, Marg'ilonda yashagan yillardagi turmush tarzi, adabiyot olamiga kirib kelishi, ma'rifatparvar ijodkorlar bilan tanishuvi, do'stlari, rus ziyorilari bilan munosabatlari to'g'risidagi haqiqatlar oydinlashadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.A. Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q"
2. Ahmadjon Meliboyev. "Tarix ummonidan qatralar". "Jahon adabiyoti" jurnali 2019-yil 2-soni
3. Юсупов Ш. Фурқат йўлларида. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1984.
4. Юсупов Ш. Санъат ва ҳайрат. –Т.: Маънавият, 1997.
5. Юсупов Ш. Хуфия қатламлар. – Т.: Маънавият, 1999.
6. Юсупов Ш. Тарих ва адаб бўстони - Т.: Маънавият, 2003.

### Интернет сайtlar:

1. [www.ziyouz.uz](http://www.ziyouz.uz)
2. [www.literature.uz](http://www.literature.uz)
3. [www.ziyo-net.uz](http://www.ziyo-net.uz)
4. [www.kutubxona.uz](http://www.kutubxona.uz)
5. [Google.uz](http://Google.uz).



**6. [Xurshid Davron kutubxonasi.uz](#)**

**LIST OF REFERENCES**

1. I.A. Karimov "There is no future without historical memory"
2. Ahmadjon Meliboyev. "Drops from the ocean of history". "World Literature" magazine, No. 2, 2019
3. Yusupov Sh. On the roads of Furqat. -T.: Literature and Art, 1984.
4. Yusupov Sh. Art and wonder. - T.: Spirituality, 1997.
5. Yusupov Sh. Privacy layers. - T.: Spirituality, 1999.
6. Yusupov Sh. The capital of history and literature - T.: Ma'naviyat, 2003.

**Websites:**

1. [www.ziyouz.uz](http://www.ziyouz.uz)
2. [www.literature.uz](http://www.literature.uz)
3. [www.ziyo-net.uz](http://www.ziyo-net.uz)
4. [www.kutubkhona.uz](http://www.kutubkhona.uz)
5. [Google.uz](http://Google.uz).
6. [Khurshid Davron library.uz](#)

**СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ**

1. И.А. Каримов «Без исторической памяти нет будущего»
2. Ахмаджон Мелибоев. «Капли из океана истории». Журнал «Всемирная литература», №2, 2019 г.
3. Юсупов Ш. По дорогам Фурката. -Т.: Литература и искусство, 1984.
4. Юсупов Ш. Искусство и чудо. - Т.: Духовность, 1997.
5. Юсупов Ш. Уровни конфиденциальности. - Т.: Духовность, 1999.
6. Юсупов Ш. Столица истории и литературы - Т.: Ма'naviyat, 2003.

**Веб-сайты:**

1. [www.ziyouz.uz](http://www.ziyouz.uz)
2. [www.literature.uz](http://www.literature.uz)
3. [www.ziyo-net.uz](http://www.ziyo-net.uz)
4. [www.kutubkhona.uz](http://www.kutubkhona.uz)
5. [Google.uz](http://Google.uz).
6. [Хуршид Даврон Library.uz](#)